FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 18-sentabr 206-11-155-Q/24 Dang‘ara tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28, 73-moddalariga va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev rahbarligida o‘tkazilgan 2023 yil 22 dekabrdagi 50-son, 2024 yil 5 fevraldagi 9-son yig‘ilish bayoni hamda viloyat hokimining 2024 yil 02 aprel kungi 01-44/713-sonli xatiga asosan tumanda bittadan konsert-tomosha zali, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari bo‘lgan na’munali madaniyat markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida Taypoq madaniyat markazini joriy ta’mirlash maqsadida qurilish materiallari sotib olish uchun 40 000 000 (qirq million) so‘m tuman mahalliy byudjetining 2024 yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman Madaniyat bo‘limiga ajratilsin;

2. E-kengash elektron dasturida foydalanish uchun 6 600 000 (olti milliom olti yuz ming) so‘m tuman mahalliy byudjetining 2024 yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga ajratilsin.

3. TumanMadaniyat bo‘limi (J. A’zamov)larga:

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda yuqoridagi xarajatlari uchun maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash;

byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishni nazarda tutgan holda olingan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha shartnomalar tuzishda narxlarni suniy o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni hamda mablag‘larni ishlatish yakuni bilan tegishli hisobotlarni tuman Iqtisodiyot va moliya hamda G‘aznachilik xizmati bo‘limlariga taqdim etilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Latipov)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish va byudjet xarajatlar rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi

(B.Ismoilov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Akramov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Sh.Tojixakimov**